



JINOYAT PROTSESSIDA FUQAROVIY DA'VOGA OID QONUN HUJJATLARI NORMALALARINING QO'LLANILISHI

Ergasheva Ozoda Erkin qizi

Magistratura, "Jinoyat qonunchiligini qo'llash nazariyasi
va amaliyoti yo'nalishi" talabasi
e-mail:ergashevao2001@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08- November 2023 yil
Ma'qullandi: 10- November 2023 yil
Nashr qilindi: 15-November 2023 yil

KEY WORDS

fuqaroviylar, da'vo, jinoyat sudi,
fuqarolik sudi, ijro

ABSTRACT

Ushbu maqolada fuqaroviylar da'vo bilan bog'liq muammolarni aniqlash, fuqaroviylar da'voni ijro etish, yurisdiktsiya masalalari, shuningdek, unda yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish choralar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot maqsadi fuqarolik institutining jinoiy-protsessual jihatlaridir. Shu bilan birga, ushbu maqolada xorijiy tajribani o'rganish orqali qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

Ma'lumki, surishtiruv, dastlabki tergov jarayonida va sudda fuqaroviylar da'vo bo'yicha ish yuritish jinoyat protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda olib boriladi. Fuqaroviylar da'vo bo'yicha yuzaga keladigan protsessual munosabatlar kodeks bilan tartibga solinmagan bo'lsa, unda jinoyat protsessi prinsiplariga xilof bo'lмаган fuqaroviylar protsessual qonunchilikning qoidalari qo'llanadi. Masalan, ziyonni undirish, yo'qotilgan mulkni qoplash masalalari. Fuqaroviylar da'vo va fuqaroviylar da'vogarning huquqlari, majburiyatlarini jinoyat protsessual kodeksida yetarlicha o'rinni olgan.

Fuqaroviylar da'voning sudlovga tegishliligi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 38-moddasida "Jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik da'vosi, agar jinoyat ishi ko'rilmaga ushbu da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, fuqarolik sud ishlarini yuritish tartibida ko'rib chiqish uchun fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliliga doir umumiyyat qoidalari bo'yicha taqdim etiladi"¹ deb keltirilgan.

Demak, fuqaroviylar da'vo ham jinoyat sudining, ham fuqarolik sudining sudloviga tegishli bo'lishi mumkin. Jinoyat sudida ishning fuqaroviylar da'voga oid qismiga da'vo muddati ham, da'vo talabi chegarasi ham jinoyat qonunchiligi doirasida belgilanadi. Agar jinoyat sudida fuqaroviylar da'vo hal etilmay qolgan bo'lsa, da'vo muddati ham, uning chegarasi ham fuqarolik qonunchiligi yuzasida ko'rildi. Bu qanchalar to'g'ri?

Qolaversa, jinoyat sudida ushbu jihat hal etilmadan qolsa, bu fuqaroviylar da'vogarning ovvoragarchiligin keltirib chiqaradi. Chunki u bir masala yuzasidan yana boshqa bir sudga, fuqarolik sudiga murojaat qilishi lozim va bu ishini ko'rish fuqarolik ishlarining sudlovga tegishliliga doir umumiyyat qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni ishni ko'rish muddatlari, uni ijroga qaratish yana qo'shimcha vaqt talab qiladi. Aslida, jinoyat ishlarida fuqaroviylar da'vo

¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi

hal etilmasdan qolishi to'g'ridan to'g'ri bir necha holatda mavjud bo'ladi, ya'ni jinoyat protsessual kodeksining 413-moddasiga ko'ra, fuqaroviylar da'vogar yoki uning vakili sud majlisiga kelmagan taqdirda, sud fuqaroviylar da'voni ko'rmaydi, bu holda mulkiy zarar ko'rgan shaxsning fuqaroviylar da'vogar yoki uning vakili tartibida da'vo qilish huquqi saqlangan holda bo'ladi. Sud fuqaroviylar da'voni fuqaroviylar da'vogarning iltimosiga ko'ra uning ishtirokisiz ko'rishga haqlidir.

Biroq fuqaroviylar da'vo prokuror tomonidan quvvatlansa yoki sud uni ko'rishni zarus deb topsa, fuqaroviylar da'vogar yoki uning vakili kelish-kelmasligidan qat'iy nazar, sud fuqaroviylar da'voni ko'raveradi. "Fuqaroviylar javobgar yoki uning vakilining sud majlisiga kelmasligi fuqaroviylar da'voni ko'rishni to'xtatmaydi"². Demak, jinoyat sudlari tomonidan fuqaroviylar da'vogarning iltimosiga ko'ra, fuqaroviylar da'voni uning ishtirokisiz ko'rishga haqli, shunday huquq mavjud ekan, nima uchun ortiqcha ovvoragarchilik sodir etilishi kerak?

Masalan, fuqaroviylar da'voni ijroga qaratishda da'vo jinoyat sudiha hal etilsa, jinoyat sudi tomonidan amalga oshiriladi, lekin 539¹-moddaga ko'ra fuqarolik-protsessual qonunchilik va boshqa sud hujjatlariga ko'ra amalga oshirilishi keltirilgan. Ya'ni ijro ustidan nazorat jinoyat sudi tomonidan amalga oshiriladi, chunki hukm qaysi sud tomonidan chiqarilsa, uning ijrosi ham shu sud tomonidan nazorat qilinadi, ammo ijro qilishda fuqarolik-protsessual qonunchilik asosida amalga oshiriladi.

Endi xuddi shu masala yuzasidan xorijiy qonunchilikka yuzlanadigan bo'lsak, Germaniya jinoyat protsessual kodeksining 406-b-moddasiga ko'ra, fuqarolik protsessual normalariga tegishli sud qarorlarining ijrosi fuqarolik ishlari bo'yicha sud qarorlarini ijro etishga nisbatan qo'llaniladigan qoidalar bilan tartibga solinadi va jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instantsiya sudi qaysi tumanda joylashgan bo'lsa, fuqarolik yurisdiktsiyasi sudiga tegishli hisoblanadi. Ya'ni Germaniya qonunchiligidagi ko'ra, fuqaroviylar da'vo jinoyat sudiha ko'rib chiqilsa, uning ijrosi bilan shu hududda joylashgan fuqarolik sudi shug'ullanadi. Bu mantiqan to'g'ri hamdir.

Bizning jinoyat qonunchiligidan esa ijro fuqarolik-protsessual qoidalar asosida qo'llanar ekan, fuqaroviylar da'voni ustidan ham nazoratni fuqarolik sudlari ta'minlashi to'g'ri bo'lardi deb hisoblaymiz.

Rossiyalik olim O.V.Nikolaychenko o'zining fuqaroviylar da'voni ta'minlash haqidagi bir maqolasida shunday deydi: "Qonun chiqaruvchi jinoyat ishida da'vo qo'zg'atish yetkazilgan zarar va jinoiy harakat o'rtasidagi bog'liqlikdan ikkita maqsadni ko'zlagan: fuqaroviylar da'voni ta'minlab, jabrlanuvchilar uchun adolatga tezkor kirish va jinoyatlarning oldini olib, muammolarini hal qilish"³. Qolaversa, u jinoyat natijasida ziyon yetkazilgan shaxsning manfaatlari ikki huquq tarmog'ining doirasidan muhimroq ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni ushbu jarayonda shaxsning ovvoragarchilagini kamaytirish, muammosini tezkor hal etish, ziyonni qoplash muhim jihatlardan biridir.

Yuqoridaagi fikrlardan kelib chiqib, fuqaroviylar da'voga oid yana bir jihatga e'tiborimizni qaratsak, "jinoiy hodisa yuz bermaganligi yoki shaxsning jinoyatga daxli bo'limganligi, shuningdek, shaxs tomonidan harakat zaruriy mudofaa chegarasidan chiqmagani holda sodir etilganligi munosabati bilan oqlov hukmi chiqarilayotganda, sud JPK

² O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi

³ Гражданский Иск В Уголовном Процессе В Аспекте Межотраслевой Преюдиции О.В.Николайченко Саратовская государственная юридическая академия, г. Саратов, Российская Федерация

283-moddasi ikkinchi qismi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sud hukmi to'g'risida"gi 2014-yil 23-maydagi 7-sonli qarori 10-bandni to'rtinchi xatboshisiga binoan oqlangan shaxsga nisbatan fuqaroviylar da'voni qanoatlantirishni rad etadi"⁴. Ushbu qoida Jinoyat protsessual kodeksida ham, "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy sud plenumining qarorida ham keltirib o'tilgan. Yuqoridagidan kelib chiqadiki, agar jabrlanuvchi zaruriy mudofaa chegrasidan chiqmagan holda o'zini yoki o'zga shaxsni himoya qilish chog'ida uchinchi shaxsning mulkiga ziyon yetkazib qo'ysa, fuqaroviylar da'voni qoplash rad etiladi va da'vogar shu shaxsga va xuddi shu asoslar bo'yicha fuqaroviylar sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqidagi mahrum bo'ladi. Ushbu vaziyatda fuqaroviylar da'vogarning manfaatlariga ziyon yetkazilyapti va uni qoplash masalasi ochiq qolyapti deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy sud plenumining qarorida shaxsga nisbatan jinoyat ishi JPK 84-moddasi birinchi qismining 1-8-bandlari, beshinchi qismining 1,3-bandlariga muvofiq tugatilgan holda unga nisbatan fuqaroviylar da'vo ko'rmay qoldirilishi va manfaatdor shaxslarga ularning fuqaroviylar sud ishlarini yuritish tartibida da'vo qo'zg'atish huquqi tushuntirilishi lozimligi keltirilgan. Qolavaersa, jinoyat ishi appellatsiya, kassatsiya tartibida yuqorida ko'rsatilgan asoslarga binoan tugatilganda ham fuqaroviylar da'voga nisbatan shunday oqibatlar yuzaga kelishi nazarda tutilgan.

Biroq bu jarayon fuqaroviylar da'vogarning ovvoragarchiliklari, muddat jihatidan zarar ko'rishiga, boy berilgan foydaga olib kelishi mumkin. Ushbu jihatlardan biz jinoyat sudlari yuqoridagi asoslar bo'yicha ishni tugatyotganda ishning fuqaroviylar da'voga oid qismini hal etib, ijroni shu tumanga qarovchi fuqarolik sudiga topshirishini o'rini deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi fuqarolik protsessual kodeksi.
3. "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy sud plenumining qarori
4. Germaniya Federativ Respublikasi jinoyat protsessual kodeksi.
5. Гражданский Иск В Уголовном Процессе В Аспекте Межотраслевой Преюдиции О.В.Николайченко Саратовская государственная юридическая академия, г. Саратов, Российская Федерация.
6. <https://lex.uz/docs/-3115385>
7. <https://lex.uz/docs/-111460#-255074>.
8. <https://oboloo.com>.
9. <https://www.legislation.wa.gov.au/legislation>

⁴ "Jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplashga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi Oliy sud plenumining qarori